Роль акционерных обществ в национальной экономике: анализ вклада крупных акционерных обществ в валовой внутренний продукт Узбекистана, их роль в создании рабочих мест и осуществлении инновационной деятельности	884
Халекеева Зоя Пирниязовна, Эшов Алишер Ахтамович	
Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishning mohiyati va nazariy asoslari	888
Ashurov Azizbek Asqaraliyevich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarining ahamiyati	892
Xakimova Gulzora Jamshidovna	
Xorijiy mamlakatlar miqyosida elektron xizmatlarning rivojlanish tendensiyalari va ularning ko'rsatkichlari.....	896
Xudoyorova Mehrangiz	
Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tabiiy va moliyaviy resurslardan unumli foydalanish masalalari.....	901
Xomidova Kamola G'olib qizi	
"Silk road stations" turizm rastalarini tashkil etish loyihasini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari	907
Suxrob Ramazonovich Bobokalonov	
Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda fond bozorining rolini oshirish mexanizmlari.....	916
Kamilova Iroda Xusnitdinovna	
Transport xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirishda ahamiyati	921
Muxtorova Indirabonu Yasharbek qizi	
Banklarda kredit operatsiyalari hisobi va tahlilini takomillashtirish yo'llari.....	927
G'olib Tashmanov, Hilolaoy Egamberdiyeva	
Innovatsion iqtisodiyotda telemeditsina xizmatlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari.....	933
S.M. Raximova	
Marketing tadqiqotlarining iqtisodiy mazmuni, turlari va bozorni segmentlarga ajratish masalalari.....	937
Valiyeva Aziza	
G'allachilik klasterlarini shakllantirishning zarurati, bosqichlari va faoliyatining xususiyatlari.....	942
Ilmuratov Shavkat Maxsumovich	



Boshqaruv hisobi tizimida budjetlashtirishning nazariy-metodologik jihatlari	949
Urmanova Umida Xakimdjanoyna	
Пути обеспечения инвестиционной привлекательности коммерческих банков узбекистана на основе зарубежного опыта	954
Тилеумуратов Азамат Азатович	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	959
Ozatbekov Yusupxon Farxod o'g'li	



TEMIR YO'L TRANSPORTIDA YO'LOVCHI TASHISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

ORCID: 0009-0006-8131-9305

Ozatiebekov Yusupxon Farxod o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti mustaqil izlanuvchisi



Annotatsiya: mazkur maqolada temir yo'l transportida yo'lovchi tashishning iqtisodiy asoslarini rivojlantirishni belgilab beruvchi asosiy yo'nalishlar, temir yo'l transporti yo'lovchi tashish faoliyatini iqtisodiy rivojlantirishning asosiy vazifalari, O'zbekistonda temir yo'l transporti ishi ko'rsatkichlari tendensiyalari tadqiq etildi, temir yo'l transportini tarkibiy isloh qilishning eng muhim shartlari ko'rsatib berildi, tahlil natijalariga ko'ra, o'rganilgan muammolar tizimlashtirildi, shu bilan birga temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatini strategik integratsiyalash tamoyillari va temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatini rivojlantirish modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: temir yo'l yo'lovchi tashishning tashkiliy-iqtisodiy asosi, imitatsion model, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish, transport logistika tizimi, vazifalar irarxiyasi, transport kompleksi, transport-ekspeditsiya, xizmatlar bozori, temir yo'l transport infratuzilmasi, asosiy yo'nalishlar, logistik konsepsiya imitatsion model.

Abstract: in this article, the main directions defining the development of the economic foundations of passenger transport in rail transport, the main tasks of the economic development of passenger transport activities in rail transport, trends in the indicators of the work of rail transport in Uzbekistan were studied, the most important conditions for the structural reform of rail transport were outlined, according to the results of, at the same time, the principles of strategic integration of passenger transport activities in rail transport and a model for the development of passenger transport activities in rail transport have been proposed.

Key words: organizational and economic basis of railway passenger transport, imitation model, Passenger Service, transport Logistics System, hierarchy of tasks, transport complex, transport-expedition, services market, railway transport infrastructure, main lines, logistics concept imitation model.

Аннотация: в данной статье рассмотрены основные направления, определяющие развитие экономических основ пассажирских перевозок на железнодорожном транспорте, основные задачи экономического развития пассажироперевозок на железнодорожном транспорте, тенденции изменения показателей работы железнодорожного транспорта в Узбекистане. изучены, намечены важнейшие условия структурной реформы железнодорожного транспорта, по результатам одновременно разработаны принципы стратегической интеграции пассажироперевозочной деятельности на железнодорожном транспорте и модель развития пассажиротранспортной деятельности. на железнодорожном транспорте.

Ключевые слова: организационно-экономическая основа железнодорожного пассажирского транспорта, имитационная модель, обслуживание пассажиров, транспортно-логистическая система, иерархия задач, транспортный комплекс, транспорт-экспедиция, рынок услуг, инфраструктура железнодорожного транспорта, магистральные направления, имитационная модель логистической концепции.

KIRISH

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning barqaror rivojlanishi asosan transport faoliyati bilan belgilanadi. Dunyoda transport marshrutlari uzunligini 50 mln. kilometrdan ortiq darajada barqarorlashtirish qayd etilgan. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda "xalqaro transport bozori 2,2 trillionga teng baholanmoqda (YAIMni 6,8%)". Dunyoning aksariyat mamlakatlarida transportni YAIMda ulushi 4–9 foizni, aholi bandligida 3–7 foizni tashkil etadi[1]. Bir tomondan, transport tizimi milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasini, ikkinchi tomondan mamlakatning xavfsizlik darajasini aks ettiradi.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Temir yo'l transport tizimida yo'lovchi tashish faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari bir qator mahalliy va xorijlik olimlarining ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ingliz iqtisodchisi Entoni Venablsning fikriga ko'ra transport kompleksi bu ijtimoiy ishlab chiqarishning yuklar va yo'lovchilarni tashishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga ixtisoslashgan xalq xo'jiligi tarmoqlari yig'indisi tushuniladi [4].

D. Bauersoksning fikricha, an'anaviy usullarga nisbatan yuk tashuvlarini tashkil etishning afzalligi va iqtisodiy samaradorligi masalalarini kiritgan holda multimodal va intermodal yuk tashuvlarini tashkil etish muammolariga alohida e'tibor qaratgan. Shu bilan birga muallif, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalari o'z ichiga olgan transport tizimini alohida qayd etadi [5].

Mamlakatimiz olimlaridan G'.Samadov, A.Zoxidov, A.Gulamov va M.Ravshanovlarning fikricha "transport tizimi – bu yuk va yo'lovchilarni o'z manziliga yetkazish jarayonida o'zaro aloqasi bo'lgan transport turari va infratuzilmalari majmuasi, ya'ni o'zaro bog'liq bo'lgan transport sektorlari, mehnat resurslari hamda mamlakat iqtisodiyotini samarali bosharish maqsadida transportning barcha turlarini boshqaruv tizimi tushiniladi" [6].

TADQIQOT USULLAR

Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatini rivojlantirish muammolarini tahlil etish bilan shug'ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asosi va tizimning ham miqdor ham sifat jihatdan baholashga xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik, induksiya va deduksiya, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, korrelyatsion va regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, isikava diagrammasi, aniq muddatda kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yo'lovchi tashish faoliyatining iqtisodiy samaradorligini ta'minlash uchun xarajatlar va daromadlar o'rtasida muvozanat saqlash muhim ahamiyatga ega. Bu muvozanatni saqlashda tarif siyosatining moslashuvchanligi va xarajatlarni optimallashtirish o'zaro bog'liq jihatlar hisoblanadi. Tarif siyosatining moslashuvchanligi yo'lovchi tashish faoliyatining samarali boshqarilishida hal qiluvchi omildir. Tariflar bozor talablariga mos ravishda belgilanishi zarur, chunki yo'lovchilarning xarid quvvati va ularning iqtisodiy holatiga mos tariflar talabni oshirishi mumkin. Agar tariflar aholining imkoniyatlariga moslashtirilsa, bu yo'lovchilar sonining oshishiga va shunga mos ravishda daromadlarning ko'payishiga olib keladi. Buning uchun tariflar doimiy ravishda bozordagi o'zgarishlarga qarab qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Shuningdek, xarajatlarni samarali boshqarish va optimallashtirish orqali ham yo'lovchi tashish faoliyatining rentabelligini oshirish mumkin. Buning uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, poyezdlar parklarini yangilash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan choralarni qo'llash kerak. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonini optimallashtirish yoki ularning malakasini oshirish orqali ularning ish samaradorligini ko'tarish ham faoliyatning iqtisodiy natijalarini yaxshilashga yordam beradi. Iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun tariflar va xarajatlar o'rtasida muvozanat saqlanishi lozim. Tariflarning bozor sharoitlariga moslashtirilishi va xarajatlarning minimallashtirilishi yo'lovchi tashish faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifati temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Yuqori darajada xizmat ko'rsatish orqali yo'lovchilarning qoniqligini ta'minlash va ularni qaytadan safarga jalb qilish mumkin. Xizmat ko'rsatishning sifati, birinchi navbatda, xodimlarning malakasini oshirish orqali yaxshilanadi. Xodimlar yo'lovchilar bilan munosabatda bo'lishda professionallikni saqlashi, ularning talab va ehtiyojlarini to'liq tushunishi va tezkor ravishda hal qilishi lozim. Bu xizmat sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Xodimlar muntazam ravishda malaka oshirish kurslaridan o'tishlari va yangi bilimlar bilan o'zlarini boyitib borishlari lozim. Bu yo'lovchilarga ko'rsatiladigan xizmatning barqaror va yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

Shuningdek, yo'lovchilar uchun qulayliklar yaratish xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning yana bir muhim jihati. Poyezdlarda WI-FI kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini yaratish yo'lovchilarga safar davomida ishlash yoki moslashuvchan bo'lish imkonini beradi. Konditsionerlar va qulay o'rindiqlar esa safar davomida ularning qulayligi va hordiq chiqarish imkoniyatlarini oshiradi. Bundan tashqari, poyezdlarda boshqa qulayliklar, masalan, zaryadlovchi nuqtalar, oshxona vagonlari va boshqa xizmatlar joriy qilinishi mumkin. Umuman olganda, yo'lovchilarga qulay va sifatli xizmat ko'rsatish ularning safar davomida qoniqlash darajasini oshirish va transport xizmatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash uchun zarur. Bu orqali temir yo'l transporti raqobatbardoshligini saqlab qolishi va yo'lovchilarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

1-jadval. 2014–2023 yillarda transport turlari bo'yicha yo'lovchilarni tashish hajmi,¹ mln.yo'lovchi.


Yillar	Transport turlari				Jami
	Temir yo'l	Avtomobil	Havo	Elektr	
2014	19.1	5079.0	2,3	69.5	5169.9
2015	20.1	5293.2	2,2	64.5	5380.0
2016	20.5	5480.8	2,1	57.0	5560.4
2017	21.1	5591.3	2,2	64.4	5679.0
2018	22.1	5852.8	2,6	74.0	5951.5
2019	22.9	5915.2	3,2	83.3	6125.1
2020	6.2	5248.5	0,9	40.3	5295.9
2021	7.9	5914.2	3.0	104.6	6029.7
2022	9.0	6017.5	4.2	140.2	6170.8
2023	9.7	6270.2	5.3	166.8	6452.0

Jadvalda 2014–2023-yillar davomida transport turlari bo'yicha yo'lovchilarni tashish hajmi ko'rsatilgan. Ma'lumotlar temir yo'l, avtomobil, havo va elektr transportlari orqali yo'lovchi tashish hajmlarining yillik dinamikasini o'rganish imkonini beradi. Temir yo'l transporti orqali yo'lovchi tashish hajmi 2014-yildan boshlab biroz o'sib borgan. 2020-yildan esa sezilarli pasayish kuzatilgan. Bu pasayish ehtimol, global pandemiya va shu bilan bog'liq transportga bo'lgan cheklovlar natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Keyingi yillarda biroz o'sish qayd etilgan bo'lsa-da, 2023-yilda hajm hali ham pandemiya gacha bo'lgan darajaga qaytmagan. Bu holat temir yo'l transportiga bo'lgan talabning to'liq tiklanmaganligini ko'rsatadi.

Avtomobil transporti orqali yo'lovchi tashish hajmi har yili muttasil o'sgan. 2020-yilda biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, bu pasayish temir yo'l yoki havo transportidagi pasayish kabi katta emas. 2021-yildan boshlab avtomobil transporti orqali yo'lovchi tashish hajmi tiklangan va 2023-yilga kelib, eng yuqori ko'rsatkichlarga erishilgan. Bu avtomobil transportining pandemiya davridan keyingi tiklanish jarayonida tez va samarali bo'lganligini va talabning yuqoriligini ko'rsatadi. Havo transporti bo'yicha yo'lovchi tashish hajmi 2014–2020-yillar davomida nisbatan barqaror bo'lgan, lekin 2020-yilda bu hajm keskin kamaygan. Bu keskin kamayish pandemiyaning aviatsiya sohasiga katta ta'sir ko'rsatganidan dalolat beradi. Keyingi yillarda havo transporti orqali yo'lovchi tashish hajmi tiklangan va 2023-yilga kelib sezilarli o'sishga erishgan, bu aviatsiya sohasining global tiklanish jarayonida ekanligini ko'rsatadi.

Elektr transporti orqali yo'lovchi tashish hajmi ham yildan-yilga barqaror o'sgan. 2020-yilda kamayish kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda bu ko'rsatkich tiklangan va 2023-yilga kelib eng yuqori darajaga yetgan. Bu holat elektr transportining ahamiyati o'sib borayotganini va u kelajakda transport tizimida muhim o'rin tutishi mumkinligini ko'rsatadi. Jami yo'lovchi tashish hajmi 2014–2019-yillar davomida muttasil o'sib borgan. 2020-yilda bu ko'rsatkich sezilarli darajada pasaygan. Bu global pandemiya va transport sohasidagi cheklovlar bilan bog'liq. 2021-yildan boshlab qayta tiklanish kuzatilgan va 2023-yilda jami yo'lovchi tashish hajmi eng yuqori darajaga yetgan. Bu transport tizimining pandemiya davridan keyingi tiklanish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini ko'rsatadi. Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatini iqtisodiy jihatdan tadqiq etishning nazariy asosi sifatida to'rt jabhadan iborat yondashuv taklif etildi (1-rasm).

¹ Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси.



1-rasm. Temir yo'l transportda yo'lovchi tashish faoliyatini rivojlantirishning metodologik asosi².

Temir yo'l transport tizimida yo'lovchi tashish faoliyatini rivojlantirish bugungi kunda transport sektoridagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Temir yo'l transport tizimi yuqori samaradorlik, xavfsizlik va ekologik tozaligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, undagi innovatsiyalar orqali sifatli va qulay xizmat ko'rsatish, yo'lovchilar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Yo'lovchi tashish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan asosiy yo'nalishlar quyidagi ilmiy nuqtayi nazardan baholanishi mumkin.

1. Infratuzilmani modernizatsiya qilish va yangilash

Temir yo'l infratuzilmasi yo'lovchi tashish faoliyatining samarali va xavfsizligini ta'minlash uchun muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda infratuzilmani modernizatsiya qilish masalasi kun tartibida turibdi, chunki eskirgan tizimlar yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish samaradorligini pasaytiradi. Temir yo'l vokzallari, rels yo'llari va signalizatsiya tizimlarining yangilanishi hamda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining joriy qilinishi yo'lovchi tashishdagi qulaylikni oshiradi.

Yangilik sifatida infratuzilmada raqamli texnologiyalardan foydalanishni ko'rsatish mumkin. Masalan, intellektual transport tizimlari orqali yo'l harakatini boshqarish, poyezdlar harakatini monitoring qilish va favqulodda holatlarga tezkor javob berish imkoniyatlarini yaratish. Bu tizimlar yo'lovchilarga safarni qulay va xavfsiz qilish bilan birga, temir yo'l xizmatlarining sifatini oshirishga yordam beradi.

2. Poyezdlar parkini yangilash va ixchamlashtirish

Poyezdlar parkining yangilanishi temir yo'l transportining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy poyezdlar ekologiyaga kamroq zarar yetkazadigan, energiyani tejaydigan va yuqori tezlikda harakatlanadigan texnologiyalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Yangi poyezdlar orqali yo'lovchilarning safar davomidagi qulayligi ta'minlanishi va safar vaqti qisqartirilishi mumkin.

Bu borada gibril yoki to'liq elektr poyezdlarini joriy qilish muhim yangilik hisoblanadi. Bunday poyezdlar faoliyatida energiya samaradorligi yuqori va chiqindilar kam bo'ladi, bu esa ekologik jihatdan ham afzalliklarga ega. Shuningdek, energiya resurslariga bo'lgan xarajatlarni kamaytirish va transportning rentabelligini oshirish mumkin.

3. Xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy qilish

Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash ularning qoniqishini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy transport tizimlarida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishning yuqori darajasini ta'minlash uchun turli qulayliklar yaratilishi kerak. Poyezdlarda Wi-Fi, konditsionerlar, zamonaviy o'rindiqlar, zaryadlovchi uskunalar, va bordagi ovqatlanish xizmatlari yo'lovchilar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratishga yordam beradi.

2 Олиб борилган тадқиқотлар асосида муаллиф томонидан тузилган.



Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanish ham xizmat sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Masalan, onlayn biletlar sotish platformalari, yo'lovchilarning safarini rejalashtirish, poyezdlarning harakat jadvalini kuzatish va mobil dasturlar orqali xizmatlarni boshqarish yo'lovchilar uchun qulaylik yaratadi. Raqamli platformalar orqali xizmat ko'rsatish tizimini yaxshilash yoki avtomatlashtirish bugungi kunda juda katta yangiliklardan biri hisoblanadi.

4. Yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash

Temir yo'l transportida xavfsizlik masalalari doimiy e'tiborda bo'lishi kerak. Buning uchun poyezdlar, vokzallar va temir yo'l infratuzilmasi muntazam ravishda profilaktik ko'riklardan o'tkazilishi, xavfsizlik tizimlari yangilanishi kerak. Zamonaviy xavfsizlik texnologiyalari orqali yo'lovchilarning safar vaqtidagi xavfsizligini ta'minlash mumkin. Masalan, videokuzatuv tizimlari, avariya holatlarida avtomatik qo'ng'iroq qilish tizimlari va poyezdlarning avtomatik to'xtatilishi kabi texnologiyalar yo'lovchilarning xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.

Yangilik sifatida poyezdlarda sun'iy intellekt tizimlari asosida xavfsizlik nazoratini joriy qilish mumkin. Bunday tizimlar poyezdning texnik holatini muntazam nazorat qilib borishi, xavfli vaziyatlarni oldindan aniqlash va avtomatik ravishda ish olib borishga yordam beradi.

5. Ekologik samaradorlik va barqaror rivojlanish

Temir yo'l transporti ekologik tozaligi bilan ajralib turadigan vositalardan biri hisoblanadi. Yo'lovchi tashish faoliyatini rivojlantirishda ekologik talablarga mos kelish muhimdir. Yangi energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish va poyezdlarning energiya samaradorligini oshirish barqaror rivojlanish uchun muhim hisoblanadi.

Elektr poyezdlari va energiya tejovchi tizimlarning keng qo'llanilishi chiqindilarning kamayishi va energiya resurslariga bo'lgan xarajatlarning tejalishiga olib keladi. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda ham o'z hissasini qo'shadi.

6. Marketing va yo'lovchilarni jalb qilish

Yo'lovchilarni jalb qilishda marketing va reklama ishlari muhim o'rin tutadi. Buning uchun reklama kampaniyalari, chegirmalar va maxsus takliflar orqali yo'lovchilarni temir yo'l transportiga jalb qilish mumkin. Zamonaviy marketing vositalari orqali yo'lovchilarning istaklari va talablarini tahlil qilib, ularga mos xizmatlar taklif etish mumkin.

Shu bilan birga, turizmni rivojlantirishda temir yo'l transportining rolini oshirish orqali yo'lovchilar oqimini ko'paytirish mumkin. Turizm yo'nalishlari bo'yicha maxsus reyslar, ko'ngilochar poyezdlar yoki maxsus transport yo'llari yaratish yo'lovchilarning qiziqishini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatini rivojlantirish iqtisodiy, texnik va ekologik jihatlardan barqaror rivojlanishni talab qiladi. Zamonaviy innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va ekologiyaga bo'lgan e'tibor orqali yo'lovchilar uchun qulay, xavfsiz va samarali transport tizimini shakllantirish mumkin. Har bir yo'nalishdagi yangiliklar yo'lovchi tashish faoliyatini yuqori darajaga ko'tarishga va raqobatbardoshlikni saqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Venables, A. J. (2007). Evaluating Urban Transport Improvements: Cost-Benefit Analysis in the Presence of Agglomeration and Income Taxation. *Journal of Transport Economics and Policy*, 41:173–188 p.
2. Коврижных И.В. (2016) Анализ и оценки эффективности управления в организации / И.В. Коврижных. – Барнул: АФ СибАГС – 86с. 6. Fayzullayev J.S. (2019) Improvement of Economic Efficiency of Development of Зоҳидов А.А. (2018) Марказий осиё транспорт тизимини самарали бошқариш механизмини такомиллаштириш. Иқт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент.
3. Гуламов А.А. Темир йўл компаниясининг асосий капиталини иқтисодий жиҳатдан баҳолаш методологиясини такомиллаштириш ("Ўзбекистон темир йўллари" АЖ мисолида). Иқт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2020.
4. Ярашова В.К. Ўзбекистон транспорт тизимини ривожлантиришнинг макроиқтисодий жиҳатлари. Иқт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2022.
5. Рахимов Х.Ш. Мамлакат транспорт инфратузилмасини ривожлантиришнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш (темир йўл транспорти инфратузилмалари мисолида). Иқт. фан. фалсафа доктори дис. Автореферат, Тошкент 2021.
6. Frederick Starr S., Filat Yildiz, Martina reiser etc. The New Silk roads: Transport and trade in Greater Central Asia. (2007) Monograph Central AsiaCaucasus institute & Silk Road Studies Programm, Washington, D.C.: Johns Hopkins University-SAIS. – 514 p.

Интернет манбалари

7. <https://data.worldbank.org/indicator/is.air.good.mt.k1>
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 февралдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ–60-сонли фармони. // www.lex.uz.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлиси Мурожаатномаси. 24 январь 2020 йил.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

